



O'zbekiston Respublikasi
Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazi

MAHORATLI O'QITUVCHI-MALAKALI MILLAT: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



www.trm.uz

KONFERENSIYA HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlarini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-128-son hamda 2024-yil 2-fevraldagi "Ta'lim sohasidagi islohatlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-54-son qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida **joriy yilning 9-avgust kuni "Mahoratli o'qituvchi – malakali millat: uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi muammo va yechimlar"** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tadi.

KONFERENSIYA MAQSADLARI

- Pedagogik ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ta'lim sifatiga ta'siri, kasbiy rivojlanish bo'yicha ilg'or tajribalarni tahlil qilish;
- Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi muammo va yechimlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar natijalarini taqdim etish va muhokama qilish, shuningdek, ta'lim tizimining hozirgi holatini tahlil qilish;
- Zamonaviy pedagoglarning xalqaro tajribalar asosidagi kasbiy rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va amaliyotga tatbiq qilishni takomillashtirish;
- Uzluksiz kasbiy rivojlantirish istiqbollari, ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy baholashning samarali usullarini ko'rib chiqish va tajriba almashish;

Shuningdek, konferensiya orqali o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularga innovatsion yechimlarni topish maqsadida tajriba va fikr almashish maydonini yaratish.

Konferensiya o'tkazilish vaqti: 2024-yil 9-avgust.

Konferensiyaga maqolalar qabulining so'nggi kuni: 2024-yil 25-iyul.

Konferensiya tili va formati: o'zbek, rus, ingliz (onlayn va offline).

KONFERENSIYA YO'NALISHLARI

1. Filologiya fanlarining zamonaviy pedagogika rivojidagi ilmiy va amaliy istiqbollari.
 2. Aniq fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim tendensiyalarining rivojlanish istiqbollari.
 3. Tabiiy fanlarda "STEAM" yondashuvini amaliyotga tatbiq etishda innovatsion yechimlar.
 4. Amaliy fan pedagoglarining kasbiy kompetentligini oshirishning samarali usullari.
 5. Yangi bilim va kompetensiyalar davrida ijtimoiy fanlarning rivojlanish ahamiyati.
-

RO'YXATDAN O'TISH VA KONFERENSIYA MATERIALLARINI TAQDIM ETISH

Ishtirok etish uchun maqolalar 2024-yil 25-iyulga qadar [@trm_pedmahorat](https://t.me/trm_pedmahorat) telegram profili orqali qabul qilinadi.

Konferensiyaga yuborilgan maqolalar ishchi guruhi tomonidan ko'rib chiqiladi, talablarga javob bermaydigan maqolalar nashr etilmaydi.

Konferensiyaga professor-o'qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, metodistlar, amaliyotchi o'qituvchilar, magistrantlar, talabalar va ta'lim tizimidagi barcha muassasa xodimlari hamda sohadagi amaliyotchi mutaxassislari ilmiy maqolalar yuborishlari mumkin.

Konferensiya materiallari elektron to'plam ko'rinishida www.trm.uz sayti va https://t.me/trm_uz nomli rasmiy telegram kanalida e'lon qilinadi va maqolasi to'plamga kiritilgan mualliflarning har biriga **elektron sertifikatlar** beriladi.

KONFERENSIYA MATERIALLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Maqolalar konferensiya mavzusiga oid, ilmiy va tugallangan fikrlarga asoslanib, taklif va tavsiyalar bilan quyidagi mazmunga rioya qilingan holda taqdim etilishi lozim:

1. Kirish
2. Adabiyotlar tahlili (Materiallar va metodlar) [1] (iqtibos);
3. Muhokama (Maqola mavzusidan kelib chiqib, fikr-mulohaza yuritilishi lozim) [2] (iqtibos);
4. Natija (aniq va lo'nda ko'rsatilishi lozim) [3] (iqtibos);
5. Xulosa.
6. Adabiyotlar ro'yxati.

MAQOLALARNING TUZILISHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

- Maqolalar matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 cm, chapdan 3 cm, o'ngdan 1,5 cm hoshiyaga ega bo'lishi kerak;
- Maqola matni Word matn muharririda, Times New Roman shrifti, 14 o'lchamida, 1,5 intervalda bo'lishi va kamida 5 bet bo'lishi lozim;
- Maqolalarning sarlavha qismining birinchi qatorida uning nomi, ikkinchi qatorda muallifning ismi va familiyasi, ilmiy daraja va unvoni, elektron pochta hamda bog'lanish uchun telefon raqami, uchinchi qatorida muallifning ish joyi ko'rsatiladi;
- Maqolalarning sarlavha qismidan keyin bir qator tashlab annotatsiya va kalit so'zlar keltiriladi;
- Maqolaning matni kiritiladi;

Izoh: Konferensiya to'plamiga topshiriladigan maqolalardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga muallif javobgar.

HAMKORLARIMIZ



Oliy ta'lim, fan
va innovatsiyalar
vazirligi



Maktabgacha
va maktab ta'limi
vazirligi



unesco



ALFRAGANUS
UNIVERSITY



Toshkent shahridagi
Inha universiteti